

# Islom ta'limoti asoslari


**BAJARDI: ARIPOV SADRIDDIN MMNP-81**

# Reja:

- 1.
  - Islom dinining vujudga kelishi va tarqalishi
- 2.
  - Islom ta'limotining asoslari
- 3.
  - Islom dinidagi muqaddas kitoblar

*Islom dini jahon dinlaridan biri hisoblanadi. Islom dini dunyoda tarqalishi bo'yicha 2-o'rinda turuvchi din hisoblanadi. Dunyoning 172 mamlakatining aholisi Islom diniga e'tiqod qiladi. Hozirgi kunda yer yuzida Islom diniga e'tiqod qiluvchilar soni ikki milliardga yaqinlashdi. Faqatgina 18% foiz musulmonlar arab davlatlarida yashaydi. Musulmonlarning yarmidan ko'pi Afrika qit'asiga to'g'ri keladi. Pokiston va Bangladesh aholising 30% i, Hindistonning 10% dan ortiq aholisi va Indoneziya aholisi ko'p qismi musulmondur. Shu bilan birga musulmonlar AQSH, Xitoy, Yevropa mamlakatlarida ham keng tarqalgan. Janubiy Amerikada Islom dini asosan Gayana va Surinamda keng tarqalgan. Islom so'zi arabcha "bo'ysunish", "itoat etish", "o'zini Alloh irodasiga topshirish" degan ma'nolarni anglatadi.*

## Islom diniga e'tiqod qiluvchi mamlakatlar dunyo xaritasida



Islom tarixida bu din kelmasidan avvalgi davr "johiliya" yoki "jahiliyat davri" deb yuritiladi. "Johiliya" so'zi arab tilida "bilmaslik", ya'ni "yagona xudo – Allohni tanimaslik" ma'nolarini beradi. Ba'zi tadqiqotchilar johiliya davri 100-200 yil davom etgan degan fikrni biladiradilar. Bu davrda arablar orasida al-vasaniya ya'ni ko'pxudolik hukm surib, ular yakka xudolikdan bexabar edilar. Bundan tashqari xalq orasida qizlarini tiriklayin ko'mish, mayxo'rlik va boshqa bir qator ahloqiy buzuvchiliklar keng yoyilgan edi. Arablar orasida ko'pxudolik shu darajada avj olgan ediki, xatto har bir qabila va har bir oilaning o'z xudosi bo'lgan.

VII asr boshlarida Arabistonda yagona e'tiqod asosida mamlakatni birlashtirish harakati boshlandi. Bu buyuk e'tiqod yakkaxudolikka asolangan Islom dini edi. Allohning elchisi ya'ni payg'ambari Makka shahrida dunyoga kelgan Muhammad Ibn Abdulloh (570-632) bu harakatga rahnamolik qiladi. "Payg'ambar" so'zi "ezgu amallar haqida xabar beruvchi" degan ma'noni anglatadi. Islomni qabul qilib, Rasulullohga ergashgan uning izdoshlari "muslim" deb atalgan. Muhammad (s.a.v) 630-yili arablarni yagona davlatga birlashtiradi. Arab davlati Yamandan Sino yarim oroligacha, Qizil dengiz sohillaridan Markaziy Qum sahrosigacha cho'zilgan hududlarni o'z ichiga olgan.

Muhammad vafot etgach, davlatni xalifalar boshqarganlar. 632-yildan 661-yilgacha bo'lgan vaqt ichida 4 nafar xalifa hukmronlik qilgan. Bular Muhammadning qaynatalari Abu Bakr va Umar, kuyovlari Usmon va Alilar edi. Xalifa Umar davrida Suriya, Falastin, Misr, Shimoliy Afrika, Iroq istilo qilinib, Islom dini dunyo bo'ylab tarqala boshlagan. VIII asrda O'rta Osiyoda fath etilgan yerlarda aholini Islom diniga kiritish harbiy to'qnashuv, da'vat hamda soliq siyosati bilan amalga oshirildi. Islom dini IX-X asrlarda Tataristonda, X-XII asrlarda Boshqirdistonda tarqalgan.

Islom dinining ta'limoti uning muqaddas kitobi Qur'oni karimda bayon etilgan. Unga ko'ra islom ta'limotining asosini imon, islom va ehson tashkil etadi. Imon 7 aqidaga asoslanadi.

- Allohga
- Payg'ambarlarga
- Oxiratga
- O'lgandan so'ng tirilishga ishonishdir
- Taqdirga
- Muqaddas kitoblarga
- Farishtalarga



1. Alloh-dunyodagi barcha mavjudotlarni yaratgan. Olamda yuz bergan va kelajakda yuz beradigan barcha voqea va hodisalar, dunyoning tugashi va oxirat Alloh tomonidan belgilangan va uning irodasi bilan sodir bo'ladi. U biluvchidir, u bilmaydigan ish yo'q.

2. Farishtalar-Allohning nihoyatda itoatli hech bir gunohsiz, nurdan yaratilgan, odamlar ko'ziga ko'rinmaydigan bandalaridir. Farishtalarning mashhurlari-Jabroil, Mikoil, Isrofil va Azroillardir.

3. Payg'ambarlar Alloh taolo tarafidan buyurilgan din va shariat hukmlarini bandalariga yetkazadilar, bandalarni haq dinga va yaxshi ishlarga va'z, nasihat bilan chaqiradilar.

4. Muqaddas kitoblar-bu har zamonning o'ziga yarasha din va muomalat hukmlarini bayon etib, o'sha zamonning payg'ambarlariga yuborilgan vahiyalar Alloh taoloning kitoblari, ya'ni muqaddas kitoblardir. Alloh taolo payg'ambrlarga 100 sahifa va 4 ta kitob yuborgan.

5.Oxirat-bu dunyoda Alloh taoloning o'zidan va u xohlaganidan boshqa hech narsa qolmaydigan kundir.Uning qachon bo'lishini Alloh taolodan boshqa hech kim bilmaydi.

6 .Taqdir- Alloh taolo tomonidan bo'lgan va bo'ladigan yaxshi,yomon ishlarning qayshi zamonda, qaysi joyda, qay ravishda bo'lmog'ini hamda o'z ilmi azaliysi bilan bo'lmasdan turib oldindan belgilab qo'yilishidir.

7.Alloh taoloning qudrati bilan o'lgan bandalar qayta tiriladilar,so'ngra Alloh taoloning tayin qilgan yeriga borib yig'iladilar.Yig'iladigan joyning nomi "Mahshar yeri", kun esa "Qiyomat kuni" deb ataladi.

# Islom dini 5 ustunga ega.

- Kalima keltirish
- Ro'za tutish
- Haj safari
- Zakot berish
- Namoz o'qish


1.Kalimayi shahodat- Allohdan o'zga iloh yo'qligiga va Muhammad (s.a.v) uning bandasi va payg'ambar ekanligiga shohidlik beraman demoqlikdir.U arab tilida shunday deyiladi:"Ashhadu an lo ilaha illallohu va ashhadu anna Muhammadan abduhu va rasuluh".

2.Namoz o'zini musulmomnan deb hisoblaydigan har bir bandaga buyurilgan ibodatdir.Namoz ibodati kuniga 5 mahal o'qiladi.

3.Ro'za erta tongdan to kun botishiga qadar yemoq va ichmoqdan tiyilmoq va shunga niyat qilmoqlik demakdir.Ro'za har bir musulmonning o'zi tutib berishi shart bo'lgan farz ibodatidir.Ramazon oyi oxirida fitr sadaqasi beiladi.Fitr sadaqasi-o'ziga to'q musulmonlarning muhtoj va hojatmandlar uchun Ramazon oyida beradigan xayru ehsonalaridir.

4.Zakot-badavlat musulmonlarning boyliklari ichidagi faqiru miskinlarga beilishi shart bo'lgan Allohning haqqidir.Zakot-berilishi shart bo'lgan majburiy ehsondir.Zakot ehson bo'libgina qolmay ibodat hamdir.

5. Haj-bu Ka'batullohni tavof qilmoq, Safo va Marva Tepaliklari orasida yurmoq, Arof at tog'ida bo'lmoq va zarur marosimlarni ado qilmoq uchun umrda bir marotaba Makka shahriga ziyoratga bormoqlik demakdir.



# Islom dinidagi muqaddas kitoblar

- 1
  - Qur'oni Karim
- 2
  - Hadisi Sharif


Qur'on Islom dinining muqaddas kitobi hisoblanib, 114 ta sura, 6226 ta oyatdan iborat. Islom tarixiga ko'ra Qur'onning sura va oyatlari Muhammad payg'ambarga parcha-parcha tarzida vahiy qilib borilgan. Vahiy kela boshlagan kun "Laylat ul-qadr" kechasi boshlanib, 23 yil davom etgan. Muhammad (s.a.v) vafotidan so'ng Qur'oni karim suralarini top'lash va mushaf qilish xalifa Abu Bakr va Usmon nomlari bilan bog'liq.



Xalifa Abu Bakr Qur'on suralarini yoddan biladigan kishilar bilan suralarni to'plam ko'rinishiga olib kelib, Suhuf deb ataganlar. Xalifa Usmon Qur'onni butun bir kitob holiga olib kelishga erishdi. Qur'onning "Usmon to'plami" asl nusxasi Madinada qoldirilgan. Ko'chirilgan 4 nسخasi esa Makka, Kufa, Basra va Damashqqa yuborilgan. Islom an'anasida Qur'onning asl nusxasi deb tan olingan "Usmon to'plami"ning to'rtala nusxasi ham mavjud. Ulardan biri Toshkentdagi Musulmonlar idorasi kutubxonasida saqlanmoqda. "Usmon to'plami"ning qolgan 3 nusxasi Qohira, Makka va Madinada saqlanmoqda.



Hadis musulmonlarda Qur'ondan keyingi ikkinchi muqaddas kitobdir. Hadis arabcha so'z bo'lib, "rivoyat", "naql" degan ma'nolarni anglatadi. Hadis-Islom dinida Qur'ondan keyingi muqaddas manba, Muhammad payg'ambar (s.a.v.) ning faoliyati va ko'rsatmalari haqida to'plangan ma'lumotlar yig'indisidir. Hadislar VII-VIII asrlardan boshlab to'plana bordi. Hadis ilmi bilan shug'ullanuvchi olimlarni muhaddislar deb ataladilar.



Hadis ilmi rivojiga katta hissa qo'shgan vatandoshimiz bu Imom al-Buxoriydir. Imom al-Buxoriydan boy va qimmatli 20 dan ortiq asar qolgan. Ularning ichida "Al-Jome as-sahih" eng mashhuridir. "Al-Jome as-sahih" asariga 7275 ta hadis kiritilgan. Hadisda inson imoni mukammal bo'lmog'ining 3 sharti haqida bunday deyilgan:

- a) to'g'ri e'tiqodli bo'lish;
- b) kishilar bilan yaxshi munosabatda bo'lish;
- d) kishi o'z ustida ishlamog'i va o'zini ibodat hamd toatda chiniqtirmog'i lozim.

1998-yil oktabrda "Al-Jome as-sahih" kitobi ilk bor o'zbek tilida nashr etilib, kitobxonlarga taqdim etildi.



E'tiboringiz uchun rahmat.